

TEATRLARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHIDA YANGI DAVR EKSPREMENTAL TEATRLARNING O'RNI

Rashid Xoldorov,

Dramatik teatr va kino aktyorligi
 ta'lim yo'naliши I bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Vohidjon Saidov,

Teatr san'ati fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rnbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada teatrlarning shakllanish va rivojlanish bosqichida yangi davr eksperimental teatrlarning o'rni va uning rivojida sahna asarlarining yaratilish jarayonlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, yangi davr teatr san'ati va uning taraqqiy etish bosqichlari, eksperimental teatr rivojida sahna asarlarining yaratilish jarayonlari hamda eksperimental teatr san'atida aktyorlik mahorati va obraz yaratish talqini xususida ilmiy o'rganishlar asosida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yangi davr, teatr, eksperimental teatr, , sahna harakati, madaniy hayat, ijodkorlik, aktyorlik mahorati

РОЛЬ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ТЕАТРОВ НОВОЙ ЭПОХИ В ЭТАПЕ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ТЕАТРОВ

Рашид Холдоров,

Актер драматического театра и кино
 студент первой ступени обучения

Научный руководитель: Вахиджон Saidov,

Заместитель декана по учебной работе факультета театрального искусства

Аннотация: В данной статье представлены мнения о роли опытных театров новой эпохи на этапе становления и развития театров и процессов создания сценических произведений в его развитии. Также высказываются

мнения на основе научных исследований о театральном искусстве новой эпохи и этапах его развития, о процессах создания сценических произведений в развитии переживающего театра, об актерском мастерстве и интерпретации создания образа в искусство экспериментального театра.

Ключевые слова: новая эра, театр, театр переживаний, сценическое движение, культурная жизнь, творчество, актерское мастерство.

THE ROLE OF THE NEW ERA EXPERIMENTAL THEATERS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT STAGE OF THEATERS

Rashid Kholdorov,

**Dramatic theater and film acting
student of the first stage of education**

Scientific leader: Vahidjon Saidov,

Deputy dean for academic affairs of the Faculty of Theater Arts

Annotation: This article presents opinions about the role of experiential theaters of the new era in the stage of formation and development of theaters and the processes of creation of stage works in its development. Also, opinions are expressed on the basis of scientific studies about the theater art of the new era and the stages of its development, the processes of creating stage works in the development of experiential theater, and acting skills and the interpretation of creating an image in the art of experiential theater.

Key words: new era, theater, experiential theater, stage movement, cultural life, creativity, acting skills

Teatr san'atidagi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish amaliyoti bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Tajribali va salohiyati yuqori bo‘lgan rejissyorlar va aktyorlarni turli teatrlarga asarlarni sahnalashtirish uchun safarbar etish amaliyoti o‘zini oqlab ulgurdi. Xususan, Olimjon Salimov, Valixon Umarov, Marat Azimov, Shomurod Yusupov, Sergey Seduxin singari tajribali rejissyorlar qatoriga dadil kelib qo‘shilgan Asqar Xolmo‘minov, Malika Iskandarova,

Nigora G‘oyibnazarova, Obid Abdullayev, Anvar Abdullayev, G‘ofur Mardonov singari rejissyorlarni turli teatrlarda asarlar sahnalashtirishlari uchun imkoniyatlar yaratilayotgani jamoalarga yangi “havo” kiritish bilan birga, ijodkorlarning yangi qirralarini kashf etilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat sog‘lom raqobatni shakllantirib, badiiy yuksak asarlar yaratilishiga undaydi.[1;67]

Qolaversa, teatr san’ati yangilanuvchi jarayon, unda yoshlarning yangiliklari, zamonaviy qarashlari juda ham zarur. Shu ma’noda yangi Renessansning asosiy maqsadi nafaqat yangi nomlarni aniqlash, shuningdek, ularga mas’ul vazifalarni ishonib topshirishda ham ko‘zga tashlanadi.[2;89]

Ammo milliy teatrimiz nainki dramaturgiya, balki adabiyotning boshqa turlariga ham tayanib, sekin-asta professionallik kasb etganini inkor etish mumkinmi?! Masalan, teatrda yakka ijrochining harakati va nutqiga, boshqacha aytganda, sahnaviy mahoratiga asoslangan bir aktyor teatriga nazar tashlasak, unda asotir, afsona, rivoyat, qissa kabi epik janrlar yetakchi ekanini ko‘ramiz. “To‘tinoma”, “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, “Kitobi Jamshid” kabi O‘rta va Yaqin Sharqda mashhur bo‘lgan epik-afsonaviy asarlar, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Bahrom va Gulandom” singari ishqiy-romantik qissalar baxshilar tomonidan aytilib, og‘izdan-og‘izga ko‘chgan.[3;114]

Xususan mamlakatimizda yangi davr eksperimental teatrlar qatorida “Mime boys” zamonaviy pontamima teatri 2017-yil 11-noyabr O’zDSMI o’quv teatrida ilk konsert dasturidan tashkil topgan. 2018 yil mart oyida Rossiya davlati MDH davlatlari oliygohlari o‘rtasi o’tkazilgan teatr festivalida “Artist” S. Mannonov asari bilan qatnashib “Eng yaxshi rejissorlik ishi” va “Eng yaxshi plastik ish” nomanatsyasini qo’lga kiritgan. Hozirda teatr “Magic sity” oilaviy parkining ichida joylashgan. Teatr “Stargate system” MCHJ bilan yillik 2 milliard so’mlik shartnoma imzolangan.

Hozirda teatrda 19 ta aktyor va 1 ta texnik xodim faoliyat yuritadi. Teatr repertuari Alisher Navoiyning “Xamsa” asari asosida “Farhod va Shirin” eksperimental

musiqali S. Mannonov tomonida insenirofka va saxnalashtirildi spektak 16 daqiqa davom etadi “karmen” musicam S. Mannonov tomonidan saxnalashtirildi musical 12 daqiqa davom etadi.[4;98]

S.Mannonov tomonidan yozilgan va saxnalashtirilgan “ Muxabbat favvorasi” O’zbekistondagi ilk total teatri uslubieksperimental musicali “Bulvard” zamonaviy turarjoy majmuasining markaziy ko’chasida qo’yildi musical 36 daqiqa davom etadi.

Ushbu teatr asarlarining reglamenti asosa 15 daqiqadan 40 daqiqagacha davom etadi va shu vaqt ichida asarning moxiyati va mazmuni ochib beriladi. Bunda “Mime boys” zamonaviy “eksperimental” pontamima teatrlari asarga boshqacha yondoshuvi tomoshabinlar bilan to’g’ridan to’g’ri muloqoti hamda asarning qisqa vaqt ichida tushunarligi bilan boshqa ananaviy teatrlardan ajralib turadi.[5;45]

Ushbu “Yangi davr eksperimental teatrlarining shakllanishi va rivojlanishi” mavzusidagi tadqiqot ishida yangi davr teatr san’ati va uning taraqqiy etish bosqichlari, eksperimental teatr rivojida sahna asarlarining yaratilish jarayonlari hamda eksperimental teatr san’atida aktyorlik mahorati va obraz yaratish talqini xususida ilmiy o’rganishlar asosida fikr-mulohazalarni bildirar ekanmiz, teatr sohasida ushbu yo’nalishga oid teatr san’at turini rivojlantirish uchun soha vakillarining oldiga ko’pgina maqsad va vazifalarni aniq qilib belgilab olish kerak ekanligi ko’zga tashlanadi.

Shu o‘rinda “Yangi davr eksperimental teatrlarining shakllanishi va rivojlanishi” mavzusidagi tadqiqot ishini o’rgangan holda sohani rivojlantirishga qaratilgan quyidagi takliflarni bildirib o’tamiz:

-mamlakatimizda yangi davr eksperimental teatr san’atini yanada rivojlantirish, teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasi va ta’sirchanligini kuchaytirish, iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, yuqori malakali teatr ijodkorlarini amaliy tayyorlash;

- yangi davr eksperimental teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasi va ta’sirchanligini kuchaytirish, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini oshirish, yuqori malakali teatr ijodkorlarini amaliy tayyorlash;
- yangi davr eksperimental teatr san’ati sohasida malakali yosh rejissorlar, aktyorlar, dramaturglar, notiqlik san’ati bo‘yicha mutaxassislarni izlab topish va ularning mahoratini oshirish maqsadida professional truppa hamda havaskorlik jamoasini tashkil etish;
- yangi davr eksperimental teatr san’ati sohasida malakali yosh rejissorlar, aktyorlar, dramaturglar, notiqlik san’ati bo‘yicha mutaxassislarni izlab topish va ularning mahoratini oshirish maqsadida professional truppa hamda havaskorlik jamoasini tashkil etish;
- aktyorlik san’ati va rejissorlik bo‘yicha teatr va san’at muassasalarining ijodiy xodimlari hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining talaba va o‘quvchilari uchun amaliyot kurslari (ijodiy ustaxona) tashkil etish;
- aktyorlik san’ati va rejissorlik bo‘yicha teatr va san’at muassasalarining ijodiy xodimlari hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining talaba va o‘quvchilari uchun amaliyot kurslari (ijodiy ustaxona) tashkil etish;
- xorijiy davlatlardan malakali mutaxassislarni jalb etgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi teatrlarning yosh iste’dodli -aktyorlari va boshqa ijodiy xodimlari uchun doimiy ravishda trening, mahorat darslari, teatr san’ati bilan bog‘liq o‘quv-tajriba mashhg‘ulotlari hamda maxsus loyiha bo‘yicha tajriba spektakllari yaratish;

-xorijiy davlatlardan malakali mutaxassislarini jalb etgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi teatrлarning yosh iste’dodli aktyorlari va boshqa ijodiy xodimlari uchun doimiy ravishda trening, mahorat darslari, teatr san’ati bilan bog‘liq o‘quv-tajriba mashg‘ulotlari hamda maxsus loyiha bo‘yicha tajriba spektakllari yaratish;

-mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyati, festival, ko‘rik-tanlov, teatrlashtirilgan shoular, ma’ruzalar, madaniyat, san’at, ilm-fanning atoqli arboblari bilan uchrashuvlar, dam olish va ijodiy kechalar, maqsadli teatrlashtirilgan marosim kechalari va boshqa tomosha tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazishni ta’minlash.

-mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyati, festival, ko‘rik-tanlov, teatrlashtirilgan shoular, ma’ruzalar, madaniyat, san’at, ilm-fanning atoqli arboblari bilan uchrashuvlar, dam olish va ijodiy kechalar, maqsadli teatrlashtirilgan marosim kechalari va boshqa tomosha tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazishni ta’minlash kabi asosiy vazifalardir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, inssenirovka vositasida adabiyot va teatrning sintezlashuvi har ikki san’at turi ravnaqiga ham birdek xizmat qiladi. Chunonchi, adabiy asarni sahnalashitirish, bir tomondan, o‘quvchining asar haqidagi bilim va tasavvurlarini boyitib, kitobxonlik madaniyati shakllanishiga ko‘maklashsa, boshqa tomondan, teatrlarni mudom xavotirga soluvchi dramatik asar tanqisligidan xalos etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvohidova Z. Respublika “Yosh tomoshabinlar teatrining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rnii”. – T.: 2016.
2. Zamatinov A. “Teatrlarida milliy kolorit ifodasining tarixiy va zamonaviy aspektlari”. – T.: 2017.

3. To'laxo'jayeva M. XX asr teatr islohotlari. // "Jahon adabiyoti", 2019- yil, 1-son. Jean Benedetti , Konstantin Sianislavsky. An actor's work : a student's diary. Routledge, 2008.
4. Zufarov U. "Sahna talqini va tahlil". O'zbekiston davlat konservatoriysi.2005y.